

**TABIIY IMMUNITET KO'RSATKICHLARINI GENDERGA BOG'LIQ
KO'RSATKICHLARINI TADQIQOT QILISH**


Yunusova N.A.

Dushanova G.A.

Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi**Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti**<https://doi.org/10.5281/zenodo.10730722>

Regional xususiyatlar bilan bog'liq tadqiqotlarda genderga bog'liq ko'rsatkichlarni tadqiqot qilish va asosan o'rganilayotgan hududda tabiiy immunitet ko'rsatkichlarini yoshga bog'liq xususiyatlarni o'rganish, ushbu hududni tasniflash uchun ishlatilishi mumkin [1,3].

Samarqand viloyatida olib borilgan erkaklar va ayollar guruhida olib borilgan tabiiy immunitet ko'rsatkichlari bo'yicha tadqiqotlar natijalari jadval#1 da keltirilgan. Jadval#1 da keltirilgan ko'rsatkichlarga ko'ra, ayollar guruhida limfotsitlar foiz miqdori ma'lum darajada yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lgan ($25,2 \pm 2,4$, $28,8 \pm 2,9$, $25,64 \pm 3,3$, $P \leq 0,05$) Samarqand viloyati aholi guruhi ko'rsatkichlariga nisbatan va erkaklar guruhiga nisbatan. Lekin jadval#1 da keltirilgan ko'rsatkichlarga ko'ra, Samarqand viloyati uchun keltirilgan normativ ko'rsatkichlar (19-37) diapazonida bo'lgan. Shu bilan birga, tayyoqchayadroli neytrofillar ko'rsatkichlari foiz miqdorining pasayishi ($5,0 \pm 0,12$, $3,8 \pm 0,19$, $4,8 \pm 0,15$, $p \leq 0,05$) (6-rasm), va segmentyadroli neytrofillar foiz miqdorining ko'rsatkichlari ayollar guruhida umumiy populyatsiyaga va ($53 \pm 1,7$, $55,4 \pm 1,5$, $51,4 \pm 1,4$, $p \leq 0,05$) erkaklar guruhi ko'rsatkichlariga nisbatan yuqori bo'lgan. Xuddi shuningdek, bu ko'rsatkichlar diapazon norma ko'rsatkichlaridan chetga chiqmagan. Eozinofillar foiz miqdorini o'rganish erkaklar guruhida bu ko'rsatkichning Samarqand viloyati aholisi umumiy guruhiga va ayollar guruhiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlarga ($0,8 \pm 0,02$, $0,4 \pm 0,01$, $1 \pm 0,6$, $P \leq 0,05$) ega ekanligini ko'rsatdi. Lekin bu ko'rsatkichlar erkaklar guruhida farqlar ishochlilik darajasiga ega bo'lmagan, shuningdek ko'rsatkichlar normativ ko'rsatkichlar chegarasida joylashgan jadval#1 Monotsitlar va bazofillar foiz miqdori tadqiqot qilingan guruhlarda farqlarga ega bo'lmagan. C- reaktiv oqsil miqdori ayollar guruhida ma'lum oz darajada tadqiqot qilingan umumiy populyatsiga va erkaklar guruhiga nisbatan yuqori bo'lgan. Bu ko'rsatkich erkaklar guruhida umumiy tadqiqot qilingan guruhga nisbatan va ayollar guruhiga nisbatan past ko'rsatkichlarga ega bo'lgan ($0,31 \pm 0,31$, $0,54 \pm 0,5$, $0,2 \pm 0,01$, $p \leq 0,05$).



1-rasm. Tadqiqot qilingan guruhda ayollar va erkaklar guruhida leykotsitlar fagotsitar faolligi

CD16% tabiiy qotil hujayralar foizini (1-jadval, 1- rasm) o'rganilgan guruhlarda tadqiqot qilish ko'rsatkichlar farq qilmasligini ko'rsatdi [2]. Leykotsitlar NFF%, FI va FS funksional faolligi ayollar va erkaklarning o'rganilgan guruhlarida ko'rsatkichlar farq qilmagan. Leykotsitlar migratsiyasini bostiruvchi omil (erkaklar guruhida 20% MI=0,80±0,01 da, 40% MI=0,60±0,02 ga nisbatan qarshi ko'rsatkichlarda) erkaklar guruhida ayollar guruhiga nisbatan leykotsitlar migratsiyasini stimullovchi omil normal ko'rsatkichlarida leykotsitlar funksional faolligi ko'rsatkichlarining oshishi kuzatilgan. Shunga ko'ra, tadqiqot qilingan sog'lom ayollar va erkaklar guruhida o'tkazilgan tadqiqotlarda, jinsiy tafovutdagi farqlar faqatgina KonA-indutsirlangan leykotsitlar migratsiyasin bostiruvchi omil, leykotsitlar funksional faolligi bilan bog'liq bo'lgan. Qolgan tabiiy immunitet ko'rsatkichlari norma diapazoni chegarasida joylashgan va ular o'rtasidagi farqlar ishonchlilik darajasiga ega bo'lmagan.

Tadqiqot qilingan erkaklar guruhida yoshga nisbatan ko'rsatkichlar farqlanishi yuqori darajada bo'lmagan va ishonchlilik darajasiga ega bo'lmagan. Ayollar yoshga nisbatan tabiiy immunitet ko'rsatkichlarini tadqiqot qilish ko'rsatkichlarda bir qancha farqlanishlar aniqlandi. Tabiiy immunitet hujayraviy ko'rsatkichlari jadval#2 keltirilgan.

Jadval№ 2

Samarqand viloyati aholisida ayollar yosh guruhlariga ko'ra tug'ma immunitet ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	1 guruh <25 yosh (n=96)	2 guruh 25-35 yosh (n=117)	3 guruh >35 yosh (n=74)
Limfotsitlar, (%)	25,2±1,1	26,8±2,9	24,64±3,3
Leykotsitlar, n*10 ⁹ /l	6,21±0,03	6,34±0,01	6,14±0,06
Tayoqchayadroli neytrofillar, (%)	4,1±0,12	3,8±0,19*	4,8±0,15

Segmentyadroli neytrofillar, (%)	51,2±1,2	55,4±1,5*	51,4±1,4
Eozinofillar, (%)	0,8±0,02	0,7±0,01	0,9±0,6*
Bazofillar (%)	0,9±0,01	0,8±0,01	0,8±0,02
Monotsitlar, (%)	4,08±0,04*	5,08±0,02	5,2±0,03
C-reaktiv oqsil, mg/l	0,32±0,2	0,54±0,5*	0,2±0,01

Eslatma: *- guruhlar o'rtasidagi ishonchlilik darajasi (P<0,05)

Tadqiqot natijalariga ko'ra ayollarda >35 yoshdan yuqori guruhda 25 yoshdan kichkina va 25-35 yoshdagi guruhga nisbatan umumiy limfotsitlar foiz miqdorida biroz pasayish kuzatilgan (25,2±1,1, 26,8±2,9, 24,64±3,3). Leykotsitlar miqdorida guruhlar o'rtasida farqlar topilmagan. Tayyoqchayadroli neytrofillar foiz miqdori 25-35 yoshdagi guruh ayollarida 25 yoshdan kichkina va 35 yoshdan katta yoshdagi guruh ayollariga nisbatan ko'rsatkich kamayishi kuzatilgan (4,1±0,12, 3,8±0,19, 4,8±0,15, P≤0,05). Xuddi shuningdek, segmentyadroli neytrofillar foiz ko'rsatkichlari 25-35 yashdagi ayollar guruhida boshqa yoshdagi guruhlariga nisbatan yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan (51,2±1,2, 55,4±1,5, 51,4±1,4, P≤0,05). Eozinofilli leykotsitlar foiz miqdori 35 yoshdan katta ayollar guruhida boshqa yoshdagi ayollar guruhiga nisbatan yuqori bo'lgan (jadval#2). Tadqiqot natijalariga ko'ra, monotsitlar miqdori 25 yoshdan kichik yoshdagi ayollar guruhida past ko'rsatkichlarga ega bo'lgan va farqlar ishonchlilik darajasiga ega bo'lgan (4,08±0,04, 5,08±0,02, 5,2±0,03, P≤0,05). C- reaktiv oqsil organilgan ayollar Yoshi bilan bog'liq bo'lgan guruhlarda 25-35 yoshdagi ayollar guruhida boshqa yoshdagi ayollar guruhiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lgan, lekin olingan natijalar normativ ko'rsatkichlar diapason chegarasida bo'lishi aniqlangan (0,32±0,2, 0,54±0,5, 0,2±0,01, P≤0,05).

References:

1. Liwu Li. Regulation of innate immunity signaling and its connection with human diseases//Curr Drug Targets Inflamm Allergy. 2004 Mar;3(1):81-6. doi: 10.2174/1568010043483863.
2. Priyadarshini S, Aich P. Effects of psychological stress on innate immunity and metabolism in humans: a systematic analysis. PLoS One. 2012;7(9):e43232. <https://doi.org/10.1371/journal.pone.0043232>
3. Samuel Philip Nobs, Niv Zmora, Eran Elinav. Nutrition Regulates Innate Immunity in Health and Disease// Annu Rev Nutr. 2020 Sep 23;40:189-219. doi: 10.1146/annurev-nutr-120919-094440. Epub 2020 Jun 10.